



DUNYO ME'MORCHILIGIDA MINORALAR O'RNI

Karimov Ibrat Zafarjonovich

*UrDU Texnika fakulteti, Arxitektura kafedrası 211-guruh magistranti,
O'zbekiston, Urganch Shahar*

Ilmiy rahbar: Reyimboev Shuxrat Sadullaevich

Toshkent arxitektura qurilish instituti Arxitektura fakulteti dekani dotsent

Annotatsiya: *Maqolada minoralar tarixi va ular haqida ma'lumotlar kiritib o'tildi.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, Ichan-qal'a, Kalta minora, Masjid, Minora, Misr, Tarixiy obidalarimiz.*

Аннотация: *Статья включает в себя историю башен и информацию о них.*

Ключевые слова: *Узбекистан, Ичан-Кала, Короткая Башня, Мечеть, Башня, Египет, наши исторические памятники.*

КИРИШ

Sobiq ittifoq davrida boshlanib, ayniqsa mustaqilligimiz davrida O'zbekiston shaharsozligi evolyutsion rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq qilishda yuqori samarali tadqiqotlar olib borildi. Ayni qsa o'tgan asrning boshlarida Xiva "Ichan qal'a" zapovednigi tarkibidagi me'moriy obidalar konstruktiv tizimini me'moriy o'rganish hamda shaharsozlik qonuniyati rivojlanishida minoralar o'rnini tahlil etish, qolaversa "Ichan-qal'a" zapovednigi tarkibidagi me'moriy obidalarda o'lchov ishlarini olib borish hamda Xiva shaharsozligida vertikal kompazitsiyasini shakllantirish minoralarga oid me'moriy va tarixiy ma'lumotlar yig'ildi va tahlil etildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Minoralarining kelib chiqishi haqida bir necha so'z. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra (Al-Makriziy), birinchi Umaviy xalifasi Musaviyya b. Abu Sufayn 673 yilda Misrdagi hokimiga azon aytish - musulmonlarni namozga chaqirish uchun minoralar qurishni buyurgan. Masjidning to'rt burchagiga minoralar qurilgan. Musulmon me'morchiligi tarixida bu minoralar haqidagi birinchi ma'lumotdir. Ehtimol, Suriyadagi islomdan oldingi diniy binolarning minoralari minoralar uchun vertikal tuzilmalar g'oyasini bergan. Xususan, hozir Umaviylar masjidi joylashgan Damashqdagi qadimiy ibodatxonada ikkita minora qolgan. Ulardan minora sifatida foydalanilgan. Keyinchalik kvadrat qismli uchinchi minora qurilgan. O'shandan beri, bir necha asrlar davomida minoralar ushbu namuna bo'yicha qurilgan.

Tarixiy obidalarimiz savlati va salobati hali hanuz yosh avlodni va yurtimizga kelgan mehmonlarni hayratga solishdan to'xtamaydi. Ulardan Keshdagi "Oq saroy"dan tortib Buxorodagi Ark majmuasi, Samarqanddagi Registon majmuasi va shu kabi faxrimizga sababchi obidalarimiz bisyor. Ana shu obidalardagi minoralar qachon va qayerda vujudga kelgani haqida turli ma'lumotlar bor.

Iroq va O'rta Osiyoda "minora", Misr, Quvayt kabi davlatlarda "mezana", Arab yarim orolining g'arbida "suvma'a" deb ataladi, bizning yurtimizda yoshu-keksa minora so'zi bilan yaxshi tanishadi. Masjidlarimizni minorasiz tasavvur qila olmaymiz, ayniqsa qadimiy masjidlarimiz haqida so'z ketganda Buxorodagi "Minorai Kalon", Xorazmdagi "Kalta minora", zamonaviy minoralardan Ko'kcha dahasidagi "Shayx Zayniddin" minoralarini bilmaydigan hamyurtlarimiz topilmasa kerak. Ular o'tmishdan xabar berib, hali hanuz savlat to'kib turibdi.




Xiva Kalta Minor (rasm 1)


KALTAMINOR INSHOOTI

Kaltaminor inshootining balandligi 28,0m.(V.L.Voronina) bo'lib, diametrining asosdagi qiymati $D=14,2m.$ va yukoridagi kiymati $d=10,6m.$ ga teng. Olimlarning fikricha, ushbu minora kurilishi oxiriga yetkazilca, uning balandligi 75,0m, inshoot yuqori diametri $d=2,2m.$ ga teng bo'lishi lozim edi.

Bunday salobatli inshootni murakkab qurilish sharoitida borpo etishda qator muxandislik masalalari yechilgan. Ma'lumki, inshoot balandligi ortishi bilan uning xususiy og'irligi ham ortib boradi va uning tanasida katta qiymatdagi zo'rikishlar vujudga keladi. A.Asanov tomonidan keltirilgan empirik ifoda [1] orqali hisoblaganda, ushbu inshootning eng pastki g'ishtlarida vujudga keladigan kuchlanish miqdori $10,0kG/sm^2$ gacha yetishi mumkin. Bunday sharoitda inshoot statik mustaxkamligini ta'minlash muammosi paydo bo'ladi. Inshootning pastki qismi diametri miqdorini balandlik ortishi bilan intensiv kamaytirib borish orqali quruvchilar inshoot tanasidagi zo'riqishlarning keskin ortib ketishining oldini ola bilganlar. Zamonaviy fan yutuqlariga ko'ra, inshoot ko'ndalang kesimi yuzasi bo'ylama o'lchamiga nisbatan qonuniyati bo'yicha kamayib borca, bunday inshoot barcha kesimlaridagi kuchlanish o'zgarishsiz qoladi.



Миноранинг умумий ва схематик қўриниши.



Минора зинапоя юриш жойи қўндаланг кесими ўлчамлари.

Minoralarning shakli har xil bo'lsada, bir shahardagi minora boshqasidan deyarli farq qilmaydi. Poydevor, osmono'par bo'yi, ichki aylana zina va ko'kka bo'y cho'zgan gumbazdan iborat. Qanchalik uzun bo'lsa ham masjidning uzviy bir bo'laki hisoblanadi. Dastlab, minoradan azon orqali namozga musulmonlarni chaqirish maqsadida foydalanilgan. Keyinchalik ularda o't yoqib yoxud fonuslar o'rnatib, musofirlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish, xalqni xavfdan ogohlantirish vazifasi ham yuklatilgan. O'tmishda davlat ahamiyatiga molik farmon, qaror kabi rasmiy hujjatlarni e'lon qilish vazifasida foydalanilgan. Bu esa vaqt o'tishi bilan Islom arxitekturasida katta burilish yasadi.

Ba'zilari osmono'par bo'lsa, ba'zisi dumaloq, ba'zisi ko'pburchakli, ayrimlari naqshinkor-koshinli, ba'zilari arab kolligrafiyasi san'ati durdonasiga aylandi. Klassik Islom arxitekturasi mutaxassisleri minoralarni qurilish tarzi va shakliga ko'ra, tarixiy davri, islomning ta'siri yoki sulton, xalifa, amir va podshohlardan iborat shaxslarga qarab klassifikatsiya qilishgan. Unga shahar ko'rki, xavfdan omonlik, yangiliklar, kashfiyotlar manbai sifatida qarashgan.

Biroq, Rasululloh alayhissalom davrida minoralar bo'lmagan. Muazzin balandroq joyga chiqib musulmonlarni chaqirgan. Buyuk sahoba Bilol bin Raboh masjidni tepasiga chiqib ilk azonni aytgan. Islomning yoyilishi, hududlarning kengayishi minoralarga ehtiyojni tezlashtirdi.

Aksariyat tarixshunoslar ittifoqiga ko'ra, islom kirib kelgandan so'ng arab jazirasida qurilgan masjidlar minorasiz bo'lgan. Ilk minoralar Damashq va boshqa islom davlatlarida Ummaviylar sulolasi davridan boshlanadi. Demak, Islomda birinchi bo'lib oltiburchakli minora Suriya poytaxti Damashqdagi "Ummaviylar" jome' masjidida qurilgan. Mazkur minorani Muoviya bin Abu Sufyon qurdirgan.

So'zimiz oxirida bobokalonimiz Amir Temur hazratlari ayganlaridek **"Qudratimizga amin bo'lmoqchi bo'lsangiz - Biz qurdirgan inshootlarga qarang".[1].**



Buxorodagi Kalon minorasi. (rasm 2)

Hozirgi kunda Xivada atigi 12 ta minora saqlanib qolgan. Ular quyidagilar:

1. Masjidi jome minorasi.
2. Islomxo'ja minorasi.
3. To'rt shohboz minorasi.
4. Ko'k-Muhammad Aminxon minorasi.
5. Sayyid Niyoz Sholikorboy minorasi.
6. To'ra Murod to'ra minorasi.



7. Polvon qori minorasi.
8. Abdol bobo minorasi.
9. Kabutarxona minorasi.
10. Chilla avliyo minorasi.
11. Muhammad mahram minorasi.
12. Bikajon bika minorasi.

Ular turli davrlarda turlicha uslub va ko'rinishda bunyod etilgan bo'lib, balandligi ham har xil. Tarixiy qo'lyozmalarda ularning kim tomonidan va qachon qurilgani haqida aniq sana va ma'lumotlar bo'lsa-da, xalq og'zaki ijodi namunalarida minoralar qurilishi bilan bog'liq ko'p-lab rivoyatlar mavjud. E'tiborlisi shundaki, minoralar noyob me'moriy yodgorlik sifatida hanuzgacha ko'rku tarovatini ko'z-ko'z qilib, quyoshning zarrin nurlarida jilolanib turganiga qaramay kimyogar, muhandis va olimlar minoralarga ziynatlangan g'ishtu toshlar, turli ranglar tarkibini to'la aniqlay olmayaptilar. Xususan, 1908-1910 yillarda qurilgan, uzunligi 57 metr bo'lgan Islomxo'ja minorasiga feruza, lojuvard, oq, sariq va kumush rangli sopol g'ishtlar ishlatilgan. Ayrim olimlar minoralarga ishlatilgan qorishma tuproq xorijiy davlatlardan keltirilgan desalar, ba'zilari o'sha tuproq biya sutiga qorilgan, qir va adirlarda o'sadigan dorivor o'simliklar qaynatilib, ularning suviga loy qorilgan va maxsus xumbuzlarda uch oy pishitilgan, deya taxmin qiladilar.

REFERENCES:

1. Pugachenkova G.A. Samarqand, Buxoro. M., "San'at" nashriyoti, 1968, 204 b.
2. Pugachenkova G.A. O'rta Osiyo arxitekturasi XV asr. Etakchi tendentsiyalar va xususiyatlar. Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti. G'afur G'ulom, 1976. 166 b.
3. Azimov Iskandar. Arxitektura // XIVA "Ming gumbaz" shahri "Shark" matbaa konserni, 1997, 144 b.
4. Asanov A.A. O'rta Osiyo minoralarining ayrim konstruktiv xususiyatlari haqida.//O'zbekiston qurilishi va arxitekturasi, Toshkent, 4-son, 1973 yil, 1-bet. 50-52.